

O‘zbekiston Respublikasi
Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi

*70410401 – Davlat moliyasi va xalqaro moliya
magistratura mutaxassisligining malaka talablari*

Toshkent – 2023



ISHLAB CHIQILGAN VA KIRITILGAN:

- Toshkent moliya instituti.
- Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil «7»
08 dagi 344 - sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan.

JORIY ETILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari “Oliy ta’lim davlat ta’lim standarti. Asosiy qoidalar”, “Oliy ta’lim davlat ta’lim standarti. Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O‘zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me’yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

T/r		bet
1.	<i>70410401 – Davlat moliyasi va xalqaro moliya</i> magistratura mutaxassisligining umumiy tavsifi	4
1.1.	Qo‘llanish sohasi	4
1.1.1.	<i>70410401 – Davlat moliyasi va xalqaro moliya</i> magistratura magistratura mutaxassisligi malaka talabining qo‘llanishi.....	4
1.1.2.	Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari.....	4
1.2.	<i>70410401 – Davlat moliyasi va xalqaro moliya</i> magistratura mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi	4
1.2.1.	<i>70410401 – Davlat moliyasi va xalqaro moliya</i> magistratura mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining sohalari.....	4
1.2.2.	<i>70410401 – Davlat moliyasi va xalqaro moliya</i> magistratura mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining obyektlari	5
1.2.3.	<i>70410401 – Davlat moliyasi va xalqaro moliya</i> magistratura mutaxassisligi bo‘yicha magistrlarning kasbiy faoliyatlarining turlari.....	5
1.2.4.	<i>70410401 – Davlat moliyasi va xalqaro moliya</i> magistratura mutaxassisligi bo‘yicha magistrlarning kasbiy vazifalari.....	5
2.	<i>70410401 – Davlat moliyasi va xalqaro moliya</i> mutaxassisligi bo‘yicha magistrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar.....	8
2.1.	Umumi kompetensiyalar.....	8
2.2.	Kasbiy kompetensiyalar.....	8
2.3.	Umumi va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta’minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo‘yiladigan talablar.....	10
2.4.	Kvalifikatsiya.....	10
	Bibliografik ma’lumotlar.....	11
	Kelishuv varag‘i.....	12

1. 70410401 – Davlat moliyasi va xalqaro moliya magistratura mutaxassisligining umumiy tavsifi

70410401 – Davlat moliyasi va xalqaro moliya magistratura mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar tayyorlash kunduzgi, kechki, sirtqi va masofaviy ta’lim shakllarida amalga oshiriladi. Barcha ta’lim shakllari bo‘yicha o‘qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Magistratura dasturining me’yoriy muddati 2 yil.

1.1. Qo‘llanish sohasi

1.1.1. 70410401 – Davlat moliyasi va xalqaro moliya magistratura mutaxassisligi malaka talabining qo‘llanilishi.

Malaka talabi **70410401 – Davlat moliyasi va xalqaro moliya** magistratura mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar tayyorlovchi barcha oliy ta’lim muassasalari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilarini

- mazkur magistratura mutaxassisligi bo‘yicha malaka talablari, o‘quv reja va fan dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o‘quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas’ul hamda o‘z vakolat doirasida bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta’lim tashkilotining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o‘quv bo‘limi boshlig‘i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o‘qituvchilar;

- magistratura mutaxassisligining o‘quv rejasi va fan dasturlarini o‘zlashtiruvchi oliy ta’lim tashkilotining talabalari;

- magistratura bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalar;

- ta’limni boshqarish bo‘yicha vakolatli davlat organlari;

- oliy ta’lim muassasalarini moliyalashtirishni ta’minlovchi organlar;

- oliy ta’lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

- kadrlar buyurtmachilarini va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

- oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga kirayotgan bakalavriat bitiruvchilarini, ularning ota-onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

1.2. 70410401 – Davlat moliyasi va xalqaro moliya magistratura mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi

1.2.1. 70410401 – Davlat moliyasi va xalqaro moliya magistratura mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining sohalari:

70410401 – Davlat moliyasi va xalqaro moliya – iqtisodiyot sohasidagi mutaxassislik bo‘lib, barcha ta’limi muassasalarida mutaxassislikka oid fanlarni o‘qitish, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy tadqiqot institutlari, markazlari, ilmiy ishlab chiqarish birlashmalarida ilmiy tadqiqot faoliyatini yuritish, davlat moliyasini boshqarish, moliyaviy munosabatlarni tartibga solish, byudjet-soliq siyosati, mahalliy byudjetlarni boshqaruvning amal qilish mexanizmini samarali tashkil etish, moliya boshqarmalari faoliyatini tartibga solish, O‘zbekiston Respublikasi byudjet tizimidagi muassasa va tashkilotlarning byudjet smetalarini tuzishda ishtiroy etish. xalqaro darajadagi moliya tashkilotlari: XVF, Jahon banki, YeTTB, OTB va boshqa xalqaro moliya institutlarining O‘zbekistondagi vakolatxonalar; O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ijro organlari, davlat tashkilotlari, tijorat, notijorat, moliya-kredit tashkilotlarida, qo‘shma korxonalar, sug‘urta tashkilotlarida, xalqaro moliyaga oid kompleks masalalarni hal etishda, shuningdek davlat moliyasi va xalqaro moliyani rivojlantirishda davlat moliyasi va xalqaro moliyaning samaradorligini ta’minalash, istiqbolini belgilashga, kasbiy ko‘nikmaga, mutasaddilik kobiliyatiga yo‘naltirilgan inson faoliyatining vositalari, usullari, metodlari va uslublarining majmuasini qamrab oladi.

1.2.2. 70410401 – Davlat moliyasi va xalqaro moliya magistratura mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining obyektlari:

- oliy ta’lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish, professional ta’lim muassasalarida pedagogik faoliyat;
- Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlari va markazlarida hamda oliy ta’lim muassasalarida ilmiy-tadqiqot faoliyati va jarayonlar;
- O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, uning tarkibiy va hududiy bo‘linmalari;
- davlat moliyaviy resurslarini boshqarish faoliyati bilan shug‘ullanuvchi tashkilotlar;
- moliyaviy faoliyat bilan shug‘ullanuvchi davlat va nodavlat tashkilotlari;
- moliyaviy nazoratni olib boruvchi davlat organlari;
- moliyaviy nazoratni amalga oshiruvchi auditorlik tashkilotlari;
- sug‘urta va lizing kompaniyalari;
- investitsiya faoliyati bilan shug‘ullanuvchi tashkilot, muassasalar;
- byudjet tashkilotlari;
- davlat maqsadli jamg‘armalari;
- Davlat bojxona qo‘mitasi va uning bo‘linmalari;
- Davlat soliq qo‘mitasi va uning hududiy bo‘linmlari;
- O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki va uning hududiy bo‘linmalari;
- tijorat banklari va ularning hududiy bo‘linmalari;
- jismoniy va yuridik shaxslarga kredit xizmatlarini ko‘rsatuvchi nobank tashkilotlar;
- pul muomalasi faoliyatini tashkil etuvchi soha va tarmoqlar;
- kassa, hisob-kitob faoliyati bilan shug‘ullanuvchi bo‘limlar;
- moliya bozorini tartibga soluvchi davlat organlari;
- moliya bozori infratuzilmasiga mansub professional tashkilot, muassasalar;
- moliya bozorining professional ishtirokchisi sifatida konsalting firmalari;
- xo‘jalik yurituvchi sub‘ektlar;
- korporatsiya, qo‘shma korxonalar va aksiyadorlik jamiyatlar;
- valyuta birjalari, xalqaro kompaniyalar, xalqaro moliya institutlari va ularning hududiy bo‘linmalari;
- xalqaro moliyaviy operatsiyalar bilan shug‘ullanuvchi davlat va nodavlat tashkilot, korxona va muassasalar, kompaniyalar (firmalar), ishlab chiqarish birlashmalari va boshqalar.

70410401 – Davlat moliyasi va xalqaro moliya mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar fan sohasida magistratura mutaxassisligini tamomlagandan so‘ng oliy, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarida mutaxassislik fanlaridan zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalangan holda dars berish, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi, tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlari va oliy ta’lim muassasalarida ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish bilan bog‘liq kompleks masalalarni yechish huquqiga ega bo‘ladi.

1.2.3. 70410401 – Davlat moliyasi va xalqaro moliya magistratura mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining turlari:

- tashkiliy-boshqaruv faoliyati;
- ilmiy-tadqiqot faoliyati;
- oliy ta’lim, o‘rta, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarida pedagogik faoliyat;
- moliyaviy-iqtisodiy hamda hisob, tahlil va nazorat faoliyati.

1.2.4. 70410401 – Davlat moliyasi va xalqaro moliya magistratura mutaxassisligi bo‘yicha magistrlarning kasbiy vazifalari:

70410401 – Davlat moliyasi va xalqaro moliya mutaxassisligi bo‘yicha milliy malaka ramkasining 7-malaka darajasi hamda magistr kasbiy faoliyatlarining sohalari, ob‘ektlari va turlariga muvofiq magistratura bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo‘lishi lozim:

Tashkiliy-boshqaruv faoliyatida:

- fuqarolik jamiyatining dolzarb masalalarini bilishi, O‘zbekiston rivojlantirish strategiyasiga asoslangan faol hayotiy nuqtai nazarga;
- dunyoqarash bilan bog‘liq falsafiy bilimlarga tizimli ega bo‘lishi, mustaqil tahlil qila olishi, kasbiy faoliyatda ularni hisobga ola bilishi;
- vatan tarixini bilishi, ma’naviy milliy va umuminsoniy qadriyatlar masalalari yuzasidan o‘z fikrini bayon qila olishi va ilmiy asoslay bilishi, milliy istiqlol g‘oyasiga asoslangan faol hayotiy nuqtai nazarga ega bo‘lishi;
- xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, iqtisodiy fanlar bo‘yicha kasbiy faoliyati doirasida zaruriy bilimlarga ega bo‘lishi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda hayotda va o‘z kasb faoliyatida foydalaga bilishi;
- axborot yig‘ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo‘lishi, o‘z kasbiy faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olishi;
- tegishli magistratura mutaxassisligi bo‘yicha raqobatbardosh umumkasbiy tayyorgarlikka ega bo‘lishi;
- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o‘z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olishi;
- sohaga oid innovatsiyalarni amaliyotga tatbiq qilishni tashkil etish;
- ijrochilar jamoasi ishini tashkil qilish;
- fikrlar har xil bo‘lgan sharoitda boshqaruv qarorini qabul qilish, nazorat qilish va amalga oshirilgan ishlarning natijalarini baholash;
- bajarayotgan faoliyati bo‘yicha ish rejasini tuzish, nazorat qilish va amalga oshirilgan ishning natijalarini baholash;
- mehnat jarayonida xavfsizlikni ta’minlash bo‘yicha metodika va tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish qobiliyatiga ega bo‘lishi;
- atrof-muhitni muhofaza qilish va mehnat xavfsizligi talablariga mos kelishi borasida ishlab chiqarish jarayonlarini nazorat qilish;
- sog‘lom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati to‘g‘risida ilmiy tasavvur hamda e’tiqodga ega bo‘lishi;
- pullik ta’lim xizmatlarini tashkil etish va amalga oshirish;
- ixtisoslikka mos mavzu bo‘yicha turli xizmatlarni ko‘rsatish qobiliyatiga ega bo‘lishi lozim.

Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:

- ilmiy, amaliy tadqiqotlarni o‘tkazish, tajriba natijalarini tahlil qilish va ular asosida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish, ilmiy yangiliklarni kashf etish;
- ilmiy maqolalar, ma’ruzalar, risola, o‘quv adabiyotlar tayyorlash va tahrir qilish, o‘tkazilayotgan tadqiqotlar mavzusi bo‘yicha ilmiy sharhlarni ishlab chiqish, referatlar va bibliografiyalarni tuzish;
- ilmiy adabiyotlar va internet tarmog‘ida eng yangi ilmiy yutuqlar haqidagi ma’lumotlarni maqsadga yo‘nalgan holda qidirish va topish;
- ilmiy seminar, konferensiya va simpoziumlarni tashkil etish, o‘tkazish hamda faol ishtirok etish;
- tadqiqotlar uchun ko‘rsatkichlar tizimini tanlash va ularning o‘zaro aloqasini modellashtirish;
- mos mutaxassislik mavzusi bo‘yicha ilmiy loyihalarni ishlab chiqish, yechilayotgan ilmiy muammolar va topshiriqlarning konseptual va nazariy modellarini ishlab chiqish qobiliyatiga ega bo‘lishi lozim.

Oliy ta’lim, o‘rta, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarida pedagogik faoliyatda:

- oliy ta’lim, o‘rta, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarida mutaxassislikka oid tayyorgarlik yo‘nalishida nazarda tutilgan o‘quv fanlari bo‘yicha nazariy va amaliy mashg‘ulotlarni o‘tkazish;

- moliyaviy barqarorlikni ta'minlash va uni modernizatsiyalash uchun tegishli milliy va xalqaro ma'lumotlarni jamlash, ularni qayta ishlash, guruhlash va tahlil qilish natijasida tegishli xulosa va takliflarni ishlab chiqish;
- moliyaviy-iqtisodiy inqirozlarga qarshi choralarini ishlab chiqish borasida olib borilgan tadqiqot natijalarini sharhlash;
- davlat, mahalliy hukumat va xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda xalqaro moliya munosabatlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi qonunlari hamda me'yoriy-huquqiy hujjatlarni bilishi va ulardan o'z faoliyatida foydalana olish;
- xalqaro moliyaning tashkiliy-huquqiy asoslarini jahon andozasiga olib chiqish;
- to'lov balansining strukturasini baholash;
- joriy valyuta operatsiyalari va kapital harakati bilan bog'liq valyuta operatsiyalarini amalga oshirish;
- xalqaro valyuta-kredit munosabatlarini tartibga solish;
- xalqaro korporatsiyalarda pul oqimlari harakatining tahlili usullarini tadqiq etish, moliyaviy risklarni tahlil qilish va baholash;
- xalqaro moliya institutlari va xalqaro birjalarini iqtisodiy axborotlari bilan tanishish hamda ularni tahlil qilish;
- xalqaro kredit, lizing va xorijiy investitsiyalar bilan bog'liq operatsiyalarni yuritish;
- xalqaro byudjet amaliyoti mezonlari asosida mahalliy byudjetlarni boshqarish;
- xalqaro kredit liniyalarining faoliyatini tashkil etish asoslarini bilishi va ulardan foydalana olish;
- taqdim etilgan xalqaro loyihalarning moliyaviy samaradorligini baholash, ularni amalga oshirishdan olingen moliyaviy-iqtisodiy natijalarini tahlil qilish;
- xalqaro savdo aylanmasi natijalarini moliyaviy tahlil qilish;
- moliyaviy barqarorlikni ta'minlash va uni modernizatsiyalash uchun tegishli milliy va xalqaro ma'lumotlarni jamlash, ularni qayta ishlash, guruhlash va tahlil qilish natijasida tegishli xulosa va takliflarni ishlab chiqish.

2. 70410401 – Davlat moliyasi va xalqaro moliya magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar

2.1. Umumi kompetensiyalar:

- davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy-iqtisodiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olish;
- mantiqiy fikrlashlarni rivojlantirish, to'g'ri xulosa chiqarish, matematik madaniyatni shakllantirish;
- xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, iqtisodiy fanlar bo'yicha kasbiy faoliyati doirasida zaruriy bilimlarga ega bo'lishi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda kasb faoliyatida foydalana bilish;
- axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatida qo'llay bilishi, axborotlarni yig'ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo'lishi, faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olish;
- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish;
- sog'lom turmush tarzi va unga amal qilish zarurati to'g'risida tasavvurga ega bo'lish.

2.2. Kasbiy kompetensiyalar:

- ilmiy, amaliy tadqiqotlar olib borish, tajriba natijalarini qayta ishlash va ular asosida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish, ilmiy maqolalar tayyorlash va tahrir qilish, ilmiy seminar, konferensiya va simpoziumlarni tashkil etish, o'tkazish, ilmiy loyihalarni ishlab chiqish ko'nikmalariga ega bo'lish;

- pedagogik faoliyatida axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanishni bilish;
- ta’lim sifati va samaradorligini oshirishga innovatsion yondashishni bilish;
- ilmiy faoliyati natijalari bo‘yicha davlat va xorijda e’lon qilingan loyihalarda ishtirok etish uchun loyiha tayyorlash ko‘nikmalariga ega bo‘lishi;
- davlat, nodavlat va notijorat tashkilotlari tomonidan e’lon qilingan loyihalarda ishtirok etish uchun loyiha tayyorlash malakalariga ega bo‘lishi;
- davlat byudjeti, byudjetdan tashqari fondlar, davlat va nodavlat tashkilotlari hamda korxonalarida moliyaviy munosabatlarni amalga oshirish tartib-tamoyillarini bilishi;
- davlatning ichki va tashqi qarzi munosabatlarida moliyaviy risklarni boshqarishning zamonaviy usullari va yo‘nalishlarini bilishi;
- davlat moliyaviy resurslarini boshqarish va rejalashtirishda, loyihalarni boshqarishda bo‘lishi mumkin bo‘lgan xavf-xatarlarni tahlil qilish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi;
- iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning asosiy instrumentlari va uslublaridan foydalana olishi;
 - byudjet-soliq siyosatining o‘zaro vobastaligini ta’minalash ko‘nikmalariga ega bo‘lish;
 - byudjet daromadlarini va xarajatdarining optimalligini ta’minalash tartib-tamoyillarini bilishi;
 - byudjet daromadlarini oshirishning samurai yo‘llarini ishlab chiqish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi;
 - byudjet xarajatlarining natijadorligini ta’minalash tamoyillarini bilishi;
 - soliq yuklamasini taqsimlashning zamonaviy nazariyalarini bilishi va ularni byudjet-soliq siyosatini ishlab chiqishda tatbiq etish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi;
 - byudjet-soliq siyosatining zamonaviy muammolarini va ularni hal etish yo‘llarini bilishi;
 - tijorat banklari, sug‘urta hamda lizing kompaniyalarida moliyani samarali boshqarish tamoyillarini bilishi;
 - xalqaro moliya tizimini va undagi operatsiyalarni amalga oshirish tartib-tamoyillarini bilishi;
 - xalqaro moliya munosabatlarida moliyaviy risklarni boshqarishning zamonaviy usullari va yo‘nalishlarini tadqiq etishi;
 - xalqaro moliya institutlari, xalqaro korporatsiyalar faoliyatini tahlil etishi;
 - davlat moliyasi va xalqaro moliyaviy markazlarni rivojlanishini tahlil qilishi va xalqaro tajribalarni milliy iqtisodiyotga tadbiqi yuzasidan amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘lishi;
 - xalqaro moliya bozoridagi operatsiyalarni tahlil qilishi va rivojlanish tendensiyalarini aniqlashi;
 - bajarilayotgan xalqaro moliyaviy operatsiyalar yuzasidan nazariy va amaliy ishlari mavzusi bo‘yicha xavfsiz matematik, informatsion va imitatsion modellarni ishlab chiqish va tatbiq etish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi;
 - xalqaro loyihalarning moliyaviy samaradorligini baholash, tarmoqlar va sohalar bo‘yicha moliyaviy va statistik hisobotlarni tuzish hamda ularni sharhash ko‘nikmalariga ega bo‘lish;
 - tarmoqlar va sohalar bo‘yicha xalqaro moliyaviy xavfsizlikni ta’minalash, xalqaro moliyaviy operatsiyalardagi risklarni bartaraf etish, ushbu operatsiyalar samaradorligini oshirish, ularga ta’sir etuvchi omillarni aniqlash bo‘yicha tadqiqotlar o‘tkazishni va tahliliy ishlarni bajarishni bilishi;
 - tarmoqlar va sohalar bo‘yicha moliyaviy, iqtisodiy, strategik rejalarini ishlab chiqish, xalqaro moliya sohasida yechilayotgan ilmiy muammolarning konseptual hamda nazariy modellarini ishlab chiqish va ilmiy-tadqiqot natijalari bo‘yicha tavsiyalar va ishlanmalarni amaliyotga tatbiq etishni bilish.

2.3. Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta'minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.

Talabalar umumiy va kasbiy kompetensiyalar, bilim va ko'nikmalarni egallashi o'quv rejasiga mantiqiy ketma-ketlikda kiritiladigan majburiy va tanlov fanlarini o'zlashtirish, amaliyotlarni o'tish hamda boshqa o'quv mashg'ulot va akademik vazifalarni bajarish yordamida amalga oshiriladi.

Majburiy failar – magistratura mutaxassisligi bo'yicha bevosita umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashga qaratilga, zarur tayanch bilim va ko'nikmalarni ta'minlaydigan fanlar majmuasidir.

Tanlov fanlari – magistratura mutaxassisligi doirasida ixtisoslashuvdan kelib chiqib chuqurlashtirilgan, qo'shimcha bilim berish, bevosita ixtisosligi uchun zarur kompetensiyalarni kengaytirishga xizmat qiladigan, shuningdek, talabaning shaxsiy qiziqishlari, ijodiy yondashuvlari va iqtidorini qo'llab-quvvatlashga qaratilgap fanlar majmuasidiri.

Magistratura mutaxassisligi bo'yicha quyidagi amaliyotlar o'tkaziladi:

Ilmiy-tadqiqot ishi – mutaxassislikka tegishli muayayn mavzuda magistrlik dissertatsiya ishini tayyorlash bo'yicha tadqiqot olib borishga qaratiladi.

Ilmiy amaliyot (tajriba orttirish) - ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarii mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg'unlashtirish, tegishli amaliy ko'nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi.

ilmiy pedagogik ish — pedagogik mahoratini oshirishga qaratiladi.

2.4. Kvalifikatsiya: moliya-iqtisodchi, iqtisodchi-pedagog.

Bibliografik ma'lumotlar

UDK: 002:651.1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01

Tayanch so'zlar:

Kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, magistratura mutaxassisligi, kasbiy faoliyat ob'ekti, kasbiy faoliyat sohasi, magistraturaning o'quv reja va fan dasturi (magistratura dasturi), o'qib-o'rghanish natijalari, o'quv sikli, axborot-kommunikativ tizimlar, zamonaviy tadqiqot metodlari, axborot va zamonaviy pedagogik texnologiyalar, modellar va modellashtirish, ilmiy-tadqiqotlarni tashkil qilish, virtual elektron bilim manbalari, didaktika, nazariya, moliyaviy siyosat, davlat moliyasini boshqarish, moliya tizimi, moliyaviy nazorat, korxonalar moliyasi, davlat byudjeti, byudjet daromadlari, byudjet xarajatlari, byudjet jarayoni, byudjet tizimi, byudjetdan tashqari davlat jamg'armalari, sug'urta, ijtimoiy ta'minot, davlat krediti, moliya bozori, investitsiyalarni moliyalashtirish, uy xo'jaliklari moliyasi, moliya genezisi, soliq preferensiyalari, byudjet-soliq siyosati, byudjet dotatsiyasi, byudjet subvensiyasi, byudjet profitsiti, byudjet defitsiti, byudjet transferi, mahalliy moliya, chet mamlakatlar moliyasi, davlat qarzlarini boshqarish, moliyaviy resurslarni boshqarish, xalqaro moliya institutlari, xalqaro moliya bozorlari, valyuta kursi, valyuta siyosati, to'lov balansi, xalqaro iqtisodiy integratsiya, xalqaro kapital migratsiyasi, xalqaro savdo va hisob-kitob operatsiyalari, xalqaro valyuta-kredit munosabatlari, moliyaviy xavfsizlik, moliyaviy risklar va ularni samarali boshqarish, muddatli valyuta operatsiyalari, jahon valyuta tizimi, valyuta konvertatsiyasi, axborot-kommunikativ tizimlar

**Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta'lif muassasalari hamda kadrlar
iste'molchilari**

ISHLAB CHIQILDI:

Toshkent moliya instituti



Rektor

T.Teshabayev

2023 yil

« _____ »

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti



Rektor

K.Sharipov

2023 yil

« _____ »

KELISHILGAN:

**O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligi
huzuridagi Oliy ta'lifni rivojlantirish
tadqiqotlari markazi**



Direktor

Sh.Yakubov

2023 yil

« _____ »

MO

**O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va
moliya vazirligi huzuridagi G'aznachilik
xizmati qo'mitasi**



Rais o'rinosari

M.Atadjanov

2023 yil

« _____ »

"Poytaxt bank" AJ

Boshqaruv Raisi

M.Taxirov

2023 yil

« _____ »



Toshkent moliya instituti 60410400 – Moliya va moliyaviy texnologiyalar bakalavriat ta’lim yo‘nalishi malaka talablari va o‘quv rejasining ishlab chiquvchilar, turdosh oliv ta’lim muassasalari va kadrlar iste’molchilari o‘rtasida

KELISHUV DALOLATNOMASI

Toshkent shahri

“ ” 2023 y.

Biz, quyida imzo chekuvchilar – O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi G‘aznachilik xizmati qo‘mitasi Rais o‘rinbosari M.Atadjanov, “Poytaxt bank” AJ Boshqaruvi Raisi M.Taxirov, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori K.Sharipov va Toshkent moliya instituti rektori T.Teshabayev bilan birgalikda ishlab chiqilgan quyidagi bakalavriat ta’lim yo‘nalishi malaka talablari va o‘quv rejasini mazmuni bilan tanishib chiqib, kelishuv haqida ushbu dalolatnomani tuzdik:

60410400 – Moliya va moliyaviy texnologiyalar bakalavriat ta’lim yo‘nalishi.

Malaka talablari hamda o‘quv rejaning ishlab chiqilishida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 5847-sun farmoni, 2017-yil 20-apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-sun, 2017-yil 27-iyulndagi “Oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3151-sun, 2018-yil 5-iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3775-sun, 2023-yil 1-martdagи “Davlat ishtirokidagi korxonalarни isloh qilish jarayonlarini jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-83-sun, 2023-yil 10-apreldagi “Tashabbusli byudjetlashtirish amaliyotini yanada takomillashtirish hamda faol mahallalarni qo’llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-117-sun Qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 15-iyundagi “2023/2024 o‘quv yili uchun davlat oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrlari to‘g‘risida”gi F-31-sun Farmoyishi hamda oliy ta’lim sohasini tartibga soluvchi boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlar, shuningdek, xalqaro talablarga asoslangan.

Mazkur malaka talablari va o‘quv rejalarining ishlab chiqilishida asosiy kadrlar iste’molchilari tomonidan qo‘ylgan talablar ham inobatga olingan.

60410400 – Moliya va moliyaviy texnologiyalar bakalavriat ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha malaka talablari o‘quv reja va fan dasturlari hamda boshqa hujjatlarni yaratish uchun asos bo‘lib hisoblanadi.

Ishlab chiqilgan malaka talablari va o‘quv rejani o‘rnatilgan tartibda tasdiqqa tavsiya etish mumkin.

**O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va
molika vazirligi huzuridagi G‘aznachilik xizmati
qo‘mitasi Rais o‘rinbosari**


M. Atadjanov

“Poytaxt bank” AJ Boshqaruvi Raisi


M. Taxirov

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori


K. Sharipov

Toshkent moliya instituti rektori


T. Teshabayev